

YOSHLAR - MANFAATLARIMIZ HIMOYACHISI

Yakshanba, 30-iyun kuni Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasida o'quv yig'ini o'tayotgan talabalar ishtirokida Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashkil etilganligining 2 yilligi va "Yoshlar kuni" munosabati bilan ma'naviy tadbir yuqori kayfiyatda o'tkazildi. Barcha yig'in ishtirokchilari ertalabki tarqatuvdan so'ng, oldindan reja asosida puxta tayyorgarlik ko'rilgan tadbirlarni o'tkazish joylariga mas'ul shaxslar rahbarligida kuzatib borildi.



Barcha tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha taklif etilgan 5 ta muhim tashabbus asosida tashkil etildi. Ommaviy sport tadbirlari O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi «Dinamo» sport kombinatida tashkil etilib, talabalar tarkibidan shakllantirilgan jamoalar, hamda yakka tartibdagi sportchi yoshlar o'zaro kuch sinashdi.



Shuningdek, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti axborot resurs markazida talabalar tarkibidan shakllantirilgan 4 ta jamoa o'rtasida "IQ- SHOU" intellektual o'yin tashkil etildi. Ushbu o'yin institut matbuot kotibi tomonidan juda qiziqarli tarzda va yuqori saviyada olib borildi. Dastlab qur'a tashlash asosida jamoalarning bellashuv tartibi aniqlab olindi. Unga asosan, jamoalar bahsi boshlandi. Javob berish muddati va fursatini ko'rsatuvchi Qumsoat oldida turgan QSXET fakulteti 207 - guruh talabasi O'zganboeva Muhabbat guruh a'zolarining intellektual salohiyatini qiziqish bilan kuzatib turdi. Finalda kursant Abdurazzaqov Dilshod sardorlik qilgan «Arslon» jamoasi, hamda kursant Allaberdiev Ixtiyor sardorlik qilgan «Lochin» jamoalari kuch sinashib, 30 ballni qo'lga kiritgan «Arslon» jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Musobaqalarning final bosqichida g'olib bo'lgan sportchi yoshlar, intellektual o'yin g'oliblari harbiy kafedra boshlig'i podpolkovnik R. Minlishev tomonidan munosib taqdirlandilar.



Harbiy kafedra katta o'qituvchisi, Qurolli Kuchlar xizmatchisi Xaydar Ergashev va "Gumanitar fanlar" kafedrasining o'qituvchisi Bahriiddin Muqimovlar axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov